XALQ DEPUTATLARI G‘OZG‘ON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2023 - yil 10 - yanvar VI-39-1-5-210-K/23 G'ozg'on shahar xokimligi

G‘ozg‘on shahrida 2023-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning MFY kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsyentlarini qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasi hamda 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi “Maxalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24 -moddalariga asosan xalq deputatlari shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. G‘ozg‘on shahar davlat soliq inspeksiyasining 2022-yil 22-dekabrdagi 2023-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning MFY kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarini qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilash to‘g‘risidagi 19/6-01750-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga muvofiq G‘ozg‘on shahri uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda **1 gektar** uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar mustasno) bo‘yicha

mutloq miqdorda **1 kv.m** uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar Kengashi deputatlari yuqoridagi **1-2-ilovalar** bilan belgilangan soliq stavkalariga **0,7 dan 3,0 gacha** bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga egaligi ko‘rsatib o‘tilsin.

5. G‘ozg‘on shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Raxmatov), shahar moliya bo‘limi (B.Qobilov), shahar Davlat soliq inspeksiyasi (M.Ramazonova)larga
2023-yildagi budjet-soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror **“Navqiron G‘ozg‘on”** gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining saytiga joylashtirilsin.

7. . Xalq deputatlari G`ozg`on shahar Kengashining 2022-yil 01-martdagi VI-28-25-5-210-K/22 - sonli qarori 2023-yil 1-yanvar kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish G‘ozg‘on shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Raxmatov) hamda xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy byudjetni, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (D.Egamova) lar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.Bazarov**

Xalq deputatlari G'ozg'on shahar
Kengashining
2023 yil 10 yanvardagi
VI-39-1-5-210-K/23-son qaroriga
1-ilova

Yuridik shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlar

T/r	MFY lar nomi	Koeffisient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2023 yil uchun (1 ga. uchun)
1	Guliston MFY	0,75	2 640,00
2	Marmarobod MFY	0,75	2 640,00
3	Tumar MFY	0,75	2 640,00
4	Shayxon MFY	0,75	2 640,00

Xalq deputatlari G'ozg'on shahar
Kengashining
2023 yil 10 yanvardagi
VI-39-1-5-210-K/23-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlar

T/r	MFY lar nomi	Koeffisient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2023 yil uchun (1 kv uchun)
1	Guliston MFY	0,75	235,95
2	Marmarobod MFY	0,75	235,95
3	Tumar MFY	0,75	235,95
4	Shayxon MFY	0,75	235,95